



O`zbekiston Respublikasi  
Qishloq va Suv Xo`jaligi  
Vazirligi  
Toshkent Irrigatsiya va  
Melioratsiya Inisituti  
“Gumanitar fanlar”  
kafedrası  
“Sotsiologiya“ fanidan

# Mustaqil ish

Mavzu :Shaxs sotsiologiyasi va uning ijtimoiylashuvi.

Bajardi : 3- kurs 5- guruh talabasi Numonjonov Shukurjon.

Qabul qildi : O`razqulova G .

# *Reja:*

**I**

- Shaxs va uning xususiyatlari.

**2**

- Shaxsning ijtimoiy mavqei, manfaati.

**3**

- Shaxsning ijtimoiylashuvi.


**4**

- Deviant fe'l-atvor va uning klassifikatsiyasi.



# Shaxs va uning xususiyatlari.

Ijtimoiy munosabatlarning dastlabki va birlamchi asosi, ularni keltirib chiqaruvchi manbai – shaxs hisoblanadi. Sotsiologiyada shaxsning shakllanishi, ijtimoiy birliklar bilan bog'liq holda rivojlanib boruvchi, uning ehtiyojlarini, shaxs va jamiyat, shaxs va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi funktsional munosabatlarni, shaxs huquqini o'z-o'zidan boshqarilishi jarayonlarini o'rganadi.




Shaxsiy qarashlarga  
ega bo'lgan o'zini  
idora qila oladigan,  
o'zining kelajagini  
rejalay oladigan  
insonga **shaxs**  
deyiladi.

Shaxs konkret sotsial munosabatlar sub'ekti sifatida namoyon bo'lishi inobatga olinadigan bo'lsa, shaxsning asosiy sotsial sifatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning sotsial sifatlari uchta kichik sistemadan iborat:

shaxsning individualligi;

uning shaxslararo  
munosabatlari;


munosabatlar sub'ekti sifatida  
mavjud bo'lishi.



Shaxsning individualligi undagi  
xarakter, iroda, dunyoqarash,  
faoliyat jarayonidagi ba'zi bir  
xususiyatlar bilan belgilanadi.  
Undagi individual xususiyatlar  
uning amaliy faoliyatida  
namoyon bo'ladi.

### *Shaxsning shaxslararo munosabati*

shu munosabatlar sistemasining elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosiy sifatida xizmat qiladi.



### *Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida*

mavjud bo'lishi uning shu munosabatlaridagi sub'ekt sifatidagi maqomi belgilaydi.



# Shaxsning ijtimoiy mavqei, manfaati.



## **Shaxsning ijtimoiy mavqei**



bu shaxsning uning huquq va majburiyatlari yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy ahvoliga mos ravishda jamiyatda egallagan o'rnidir.



Shaxs faoliyati deganda, uning  
ichki va tashqi  
tendentsiyalarining ijtimoiy  
hayotda namoyon bo'lish  
xususiyatlariga aytiladi.

## ***Shaxs manfaati***

– bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojni qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir.

Manfaatning to'rt turi farqlanadi:

1. Munosabat manfaat

2. Harakat manfaat

3. Tayanch manfaat

4. Yo'nalish manfaat



***Munosabat manfaat*** shaxsning faoliyati jarayonida u yoki bu ob'ektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaat shaxsda shu voqellikka nisbatan e'tiqodining shakllanishidan paydo bo'ladi. Shu sababli munosabat manfaat ijtimoiy munosabatlar sistemasida muhim o'rin tutadi.

***Harakat manfaat*** shaxsning u yoki bu faoliyat sohasida qatnashishida namoyon bo'ladigan manfaat shaxsning faoliyat jarayonining aktivligi yoki passivligini bildiradi.

**Tayanch manfaat** shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta'sirlashuv jarayonida shakllangan va turli shaxslararo, guruhlararo munosabatlarda ma'lum bir faoliyatda yoki ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi va sotsial dinamik xususiyatga ega bo'ladi. Tayanch manfaat shaxsda o'zining imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, unda stereotiplarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.



**Yo'nalish manfaat** manfaatlar ichida murakkab hisoblanadi, chunki shaxs manfaatlaridan birinchi, ya'ni o'zi uchun muhimini tanlashini talab qiladi. Shaxs manfaatlari ma'lum bir ijtimoiy muhitda shakllanadi va sotsial dinamik xususiyatga ega bo'ladi. Ijtimoiy muhitning o'zgarishi shaxsdan o'z manfaatlarini o'zgartirishni talab qiladi.



# Shaxsning ijtimoiylashuvi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi ya'ni ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishi bu juda murakkab, ko'p qirrali jarayondir, u ob'ektiv muhit ta'siri ostida ham, maxsus tashkil etilgan va ongli yo'naltirilgan tarbiya ishlari ta'siri ostida ham yuzaga keladi.

«Sotsial muhitning» shaxsga ta'siri jarayoni ko'p qirralidir, chunki, u sotsial sistemaning barcha tomonlari, jarayonlarining majmuasini ifodalaydi: moddiy elementlar, individni o'rab turgan, o'z konkret sotsial roli, pozitsiyasi, qarashlari va o'rganishlariga ega bo'lgan odamlar, individ tomonidan o'zlashtiriladigan, qabul sotsial hulq-atvor normalar, shuningdek, jamiyatda obe'ktiv mavjud bo'lgan sotsial imkoniyatlar, sotsial «ko'nikmalar», talablar strukturasi.

Insonning ijtimoiylashuv va tarbiya asosidagi shaxsga xos xususiyatlarining shakllanish jarayonini qator ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar bilan asoslash mumkin:

1

- sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar

2

- sotsial yo'nalishlar va pozitsiyalar

3

- hulq-atvorni strategik tashkil etish

4

- sotsial aktivlik

**Sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar tizimi**, ilgari aytib o'tganimizdek, shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi asosini tashkil etadi. Ehtiyojlar inson faoliyatining va hulq-atvorining birlamchi, asosidir, ularni yuzaga keltiruvchi kuchdir.



**Shaxsning sotsial yo'nalishi va dunyoqarashi** sistemasiga programmalar, maqsadlar, ishonch-e'tiqodlar va baholovchi kriteriyalar yig'indisi kiritiladi. Ular shaxsning afzalroq va majburiy fe'l-atvorini belgilaydi.



**Fe'l-atvorni ichki strategik tashkil etish** tizimini

ijtimoiylashuvining asoslovchi mexanizmlarini harakatga keltirish «vositasi» sifatida qarash mumkin. U bir tomondan shaxsning ehtiyojlari qiziqishlari orientatsiyalari va pozitsiyalari va ikkinchi tomonda uning aktivligi o'rtasida «ko'prik» sifatida namoyon bo'ladi.



**Ijtimoiylashuvning shaxsga** xos tizimlari

konkret – tarixiy xarakterga ega va shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni mohiyatini ochib beruvchi ijtimoiy munosabatlar tipi va xarakteriga bog'liq.




## Deviant fe'l-atvor va uning klassifikatsiyasi.

Deviatsiya (lotincha chetga og'uvchi fe'l-atvor degan ma'noni beradi) ko'pgina hollarda sotsial sanksiyalarga muhtoj bo'ladi. Deviatsiyaning shunday ko'rinishlari borki, ular odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar normalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatga jiddiy zarar etkazmaydi.


pozitiv

negativ

Deviatsiyaning  
2 xil  
ko'rinishlari  
mavjud.



***Pozitiv deviatsiya*** hollari normalar eskirib, talabga javob bermay qolganda va ulardan og'ish tizimning rivojiga, fe'l-atvorning mavjud konservativ standartlarini o'zgartirishga yordam berishi mumkin bo'lganda uchraydi.



***Negativ deviatsiya*** sotsial patologiyadir va uning ko'rinishlari konkret shaxsga va butun jamiyatga jiddiy zarar etkazadi.

Deviatsiyaning  
quyidagi  
klassifikatsiyasi  
mavjud:

jinoatchilik

alokogolizm

giyohvandlik

suitsid

fohishabozlik.



*E'TIBORINGIZ  
UCHUN  
RAHMAT.*